O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog’liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog’liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2020 yil
12 noyabrdagi PF-6110-son Farmonida 2021 yildan boshlab olis va chekka hududlarda oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalar shifokorlar “Qishloq shifokori” dasturi asosida ishga qabul qilinganda ularga kamida 3 yil ishlab berish sharti bilan 30 million so’m miqdorida bir martalik pul mablag’lari, uy-joyi bo’lmaganlarga esa 3 yil davomida xizmat uy-joylari beriladi yoki bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida har oylik ijara to’lovlari Davlat byudjetidan kompensatsiya to’lash belgilangan.
Shu munosabat bilan Surxondaryo viloyatidagi olis va chekka hududda joylashgan 35 ta mahalladagi oilaviy poliklinika va oilaviy shifokor punktlarida 14 nafar vrachlarga bo’lgan ehtiyojni qoplash maqsadida
10 nafar vrachlar ishga qabul qilindi.
Hozirgi kunda Boysun tumanidagi Machay MFYga 1 nafar, Qo’rg’oncha hududidagi mahallalar uchun 2 nafar hamda Sherobod tumanidagi “Vandob” MFY uchun 1 nafar vrachlarga ehtiyoj mavjudligini inobatga olib “Qishloq shifokori” dasturi doirsida ishga taklif etamiz.